

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.X.Hakimov, A.A.Abdumalikov, Ё.З.Нуриддинов Объективные и субъективные факторы в возникновении первого периода восточного ренессанса (IX-XII вв.).....	5
D.E.Normatova, S.N.Muxammadova Dialektikaning paydo bo'lishi va uning namoyandalari.....	12
N.M.Axmadiyev Milliy o'zlikni anglashda Vatanparvarlik tamoyilining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari.....	15
Д.А.Исаева Влияние медиа на развитие античной философской мысли	18
I.A.Asatulloev Erix Frommning ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida diniy mavjudlikni anglashning axloqiy ahamiyati	22
O.B.Shokirov Yangi O'zbekistonning ma'naviy yuksalish jarayonida san'at imkoniyatlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili	28
R.B.Abduraxmonov Oilaviy zo'ravonlik tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari	31
X.J.Toshpo'latov Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda viktimologik profilaktika tizimini yuksaltirishning falsafiy masalalari.....	35
A.I.Abdullaxo'jaev Is'hoqxon ibrat va "Tabodili zamon": ijtimoiy-falsafiy tahlil	38
I.T.Yuldashev Jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va uning ijtimoiy-falsafiy tahlili	42
A.A.A'zamjonov Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda amaliy san'atning badiiy-ijodiy imkoniyatlari.....	46
M.K.Soipova Fazl Ibn Ahmad ta'limotida ontologik masalalarning qiyosiy tahlili	50
S.F.Abdusattarova Models of social processes: a philosophical perspective on the interaction between humans and society.....	54
S.R.Xoldarov Zamonaviy jamiyatda konfutsiychilikni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari	59
Sh.B.Samanova Atrof-muhit muvozanatida ekologik madaniyatning o'rni.....	65
R.Orziboyev G'oyaviy birdamlik tushunchasi va uning falsafiy tahlili.....	69

SIYOSAT

Z.Sh.Turg'unboyev O'zbekiston va Afg'oniston savdo-iqtisodiy integratsiyasi ahamiyati: tahlil va kelajakdagi imkoniyatlar	73
Ф.М.Бафоев Проблемы нелинейного воздействия и неравновесность в современной мировой политике	79
A.To'xtasinov Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari.....	83
U.U.Sattarov O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha normativ-huquqiy asoslar.....	87
B.T.Shokirov Kiberxavfsizlikning davlat siyosat darajasiga ko'tarilishi: zamonaviy tahdidlar va strategiyalar	93



UO'K: 141.32:17

**ERIX FROMMNING IJTIMOY-EKZISTENSIAL
KONSEPSIYASIDA DINIY MAVJUDLIKNI ANGLASHNING AXLOQIY AHAMIYATI****НРАВСТВЕННОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПОНИМАНИЯ
РЕЛИГИОЗНОГО СУЩЕСТВОВАНИЯ В СОЦИАЛЬНО-ЭКЗИСТЕНЦИАЛЬНОЙ
КОНЦЕПЦИИ ЭРИХА ФРОММА****THE ETHICAL SIGNIFICANCE OF THE UNDERSTANDING OF RELIGIOUS EXISTENCE
IN THE SOCIO-EXISTENTIAL CONCEPT OF ERICH FROMM****Asatulloev Inomjon Abobakir o'g'li** 

Farg'ona davlat universiteti dotsenti, Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya

Erix Frommning ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida diniy mavjudlikni anglashning axloqiy ahamiyati, «insonparvar» yoki «ekzistensial» ruhiyat tahlili orqali «insonni ma'naviy bo'hrondan olib chiqish» yo'llariga doir qarashlari tahlil qilingan.

Аннотация

Социоэкзистенциальная концепция Эриха Фромма анализирует этическое значение понимания религиозного существования, а также его взгляды на способы «вывода человека из духовного кризиса» через анализ «гуманистического» или «экзистенциального» мышления.

Abstract

The article analyzes the ethical significance of understanding religious existence in Erich Fromm's socio-existential concept, his views on ways to "extricate a person from a spiritual crisis" through the analysis of the "humanistic" or "existential" psyche.

Kalit so'zlar: insonparvarlik, ekzistensial, din, mavjudlik, madaniy o'zgarishlar, qalb, ijtimoiy qaramlik, hukmronlik.

Ключевые слова: гуманизм, экзистенциальный, религия, существование, культурные изменения, душа, социальная зависимость, господство.

Key words: humanism, existential, religion, existence, cultural changes, soul, social dependence, dominance.

KIRISH

Erix Fromm isloh qilingan ruhiyat tahlili yo'nalishining yagona, yirik namoyandasidir. U dinning o'ziga xos ta'limotini yaratdi. Frommning dinining mohiyati haqidagi ta'limoti, u yaratgan insonning ijtimoiy va ma'naviy hayoti, uning o'tmishi, buguni va ertasi haqidagi ta'limotning katta bir qismini tashkil qiladi[4]. Bu ta'limot Fromm ijodiyotining bir lavhasi sifatida yaxlit ruhiyat tahlilining rivoji sifatida bo'lib qolmay, balki XX asrning 60-yillarida butun G'arb ziyolilari va yoshlarining ma'naviy-ruhiy izlanishlarining keng doirasini qamrab olgan va o'ziga jalb qilgan ta'limot bo'ldi.

Fromm o'z ta'limotini «dialektika va insonparvarlikka yo'naltirilgan ruhiyat tahlili», o'zini esa «qat'iy insonparvar»[5], - deb ataydi. U «insonparvar» yoki «ekzistensial» ruhiyat tahlili orqali «insonni ma'naviy bo'hrondan olib chiqish» yo'llarini qidiradi[6]. Olim zamonaviy jamiyat insonni butunlay buzayotganini, uning tabiiy ehtiyojlarini sindirayotganini ta'kidlaydi. Inson «o'ldi», deydi Fromm iztirob bilan. Agar tezkor choralar ko'rilmasa, inqilob sodir bo'lishi muayyan haqiqatdir. Bunday yondashuv Fromm asarlarining ichki tuzilmasini belgilab berdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Erix Frommning ijtimoiy-madaniy konsepsiyasida ozodlik konsepti ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, K.Miamoto 1987 yilda «Erix Frommning begonalashuv teoriyasi» nomli tadqiqoti orqali, N.Anjum esa, 2004 yilda «Erix Fromm falsafasida inson va jamiyat masalasi» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlaydi. Turk olimlaridan M.Guner mutafakkirning axloq falsafasiga doir, H.Atsiz bo'lsa, insonparvar diniy qarashlarini bugungi jamiyat axloqiy mezonlari nuqtai nazaridan o'rganadi.

FALSAFA

O'zbekistonda Erix Fromm falsafiy antropologiyasida qalb konsepsiyasiga bag'ishlangan maxsus ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan bo'lsa-da, G.M.Ruzmatova, V.Alimasov, Q.Ro'zmatzodalarning ilmiy tadqiqotlarida ilgari surilgan qarashlar uning falsafiy ta'limoti haqida umumiy tasavvur hosil qilishga yordam beradi[1;264]. Shuningdek, Rahmon Qo'chqorning «Qalb ilmi egasi»[2;177-179] nomli maqolasida ham mutafakkirning hayoti va faoliyati qisqacha yoritilgan. Mamlakatimizda Erix Fromm falsafasi faqatgina neofreydizm yo'nalishi bo'yicha tadqiq qilingan. Ammo qayd etish lozimki, shu kunga qadar mutafakkirning inson qalbi tahliliga doir falsafiy-antropologik izlanishlar to'liq va atroflicha ochib berilmagan.

Erix Fromm falsafasini neofreydizm nuqtai nazaridan o'rgangan olimlar qatoriga V.I.Dobrenkoe, G.A.Titarenko, F.X.Sabirov kabi tadqiqotchilarni misol kilib keltirish mumkin. Shuningdek, mutafakkir falsafasi falsafiy antropologiya doirasida P.V.Agapov, I.A.Osipov, I.V.Egorovalar tomonidan tadqiq etilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Din, Fromm fikriga ko'ra, o'ziga xos hodisadir. U insonni tabiat quchog'idan ajralib chiqishidan, aqlli mavjudot sifatida o'z-o'zini anglashidan boshlab shakllanadi. Din dastavval «inson vaziyati»ning autent-ichki namoyonidir, insoniy mavjudlikning negiziy muammolarini fikrlash shaklidir. Tana va ruh o'rtasidagi, tabiat va ma'naviy mohiyat o'rtasidagi nizoni bartaraf qilishga urinib, inson turli xildagi tafakkur va izohlash shakllariga murojaat qiladi. U tug'ilishi bilan qo'yiladigan savolga javob qidiradi, qo'rquvni, yolg'izlikni, azobni qanday yo'qotish mumkin? Dunyoga bo'lgan muhabbatni, uyg'unlikni qanday topish mumkin? kabi savollarga javob topish ilinjida u o'z ongida butun dunyo manzarasini tuzadi, bu esa o'zini, tabiat va jamiyatni anglashga yordam beradi, hayot hodisalarining turli-tumanligi orasida adashib ketmasligiga turtki bo'ladi. Lekin inson nafaqat fikrlovchi, balki his qiluvchi mavjudot hamdir. U dunyo tuzilishining tafakkur qilish andozasi bilan qoniqib qolmaydi. Insonga qandaydir oliy timsol, obyekt (g'oya, maqsad) zarur, unga o'zini bag'ishlash, unga xizmat qilish orqali yaxlit o'zligini, mohiyatini namoyon qilsin. Bu ehtiyojlarni, asosiy yo'nalishlarni Fromm insonning mavjudlik ehtiyojlariga bog'laydi va unda dinning ichki asosini, manbasini ko'radi[6;145].

Darhaqiqat, E.Fromm inson tabiatidagi freydcha biologik va hirsiy omillar o'rnini susaytirib, ijtimoiylikka urg'u beradi. U o'zining «Iso aqidasi» nomli (1930) dastlabki asarida Iso timsolidagi ilk xristianlikdan boshlab to IV asrgacha bo'lgan rivojining diniy ongga ta'sirini tahlil qiladi. Tabiat kuchlari oldidagi ojizlik insonni bolalik muhitiga qaytaradi. Go'dak ota-onasi panohida xotirjamlikni, himoyani, xavfsizlikni tuyadi, lekin shu bilan bir qatorda uni qo'rquv tuyg'ulari ham qamrab oladi. Bunday vaziyatning mazmuni shundaki, himoyalanuvchi o'z ongi ostida qadimgi himoyaning ruhiy quvvatini ham saqlaydi. «Inson, - deb yozadi Fromm, - o'z ota va onasidan go'daklik davridagi mehr-muhabbat bilan birga qo'rquv hamda hayoliy timsol bo'lgan Xudoga nafratli munosabatni ham ong ostida saqlab qoladi»[7;15].

Fromm nazdida Xudo **bir tomondan**, boshqaruvchi-hukmdorlar manfaatini himoya qilsa, **ikkinchi tomondan**, boshqa odamlarga ham taskin beruvchi sifatida xizmat qiladi. Ana shu ikki vazifa ilk nasroniylik taqdirini belgilab berdi. Zotan, ota-xudo ongsiz holatda hokimiyatni ifodalagan bo'lsa, ilk xristianlikda bu hol o'ziga xos ravishda namoyon bo'ldi. «Ongli holatda ular ota-xudoni yomonlay olmas edilar. Ongli g'azab hokimiyatga qarshi qaratilgan edi... Lekin ota-xudoga nisbatan ongsiz g'azab hayoli Isoda o'z aksini topdi. Ular insonni xudo yoniga qo'yib, ota-xudoni tasavvur qildilar»[7;46-47]. O'g'il-xudoni namoyon qiluvchi inson uchun esa, xristianlik hokimiyatdagilarni yo'qotish shakli sifatida yuzaga chiqdi. Bu esa, Fromm fikricha, Iso Masih to'g'risidagi fikrlar ziddiyati mazmunini ochib beradi: ya'ni u xudo darajasiga ko'tarilgan insonmi yoki boshidan insonlarga tushgan xudo bo'lganmi? Shunday qilib, xristianlik masalalari bo'yicha Fromm Freyd ta'limotini o'ziga xos ravishda rivojlantirdi. Dinning ijtimoiy taskin beruvchi vazifasini yoritishda Fromm o'z nuqtai nazarini ilgari suradi. Diniy hissiyot tabiatini tahlil qilib, olim inson botinidagi dixotomiyaga (baravar ikkiga bo'linishga) diqqat-e'tiborni qaratadi. Inson insondan va atrof-muhitdan begonalashadi, bu holatda esa e'tiqod qilish insonni hayotdan ajralib qolganligini va yolg'izlanishini nisbatan yumshatadi.

Fromm umumiy qabul qilingan dinni Xudo haqidagi tasavvurlar tizimi bilan aynanlashtirishni inkor qiladi, uni bir tomonlama va yuzaki deb hisoblaydi. Inson faqat hayvonlarga, sanamlarga yoki xudolarga sajda qilmasdan, balki millatga, sinfga, partiyaga, pulga, odamga, kuchga yoki shu bilan bir qatorda aqlga, muhabbatga va birodarlikka sig'inadi, deb ta'kidlaydi Fromm. Uningcha, dinning

mavjudligi uning o'zgaruvchanligini hal qilish usullari bilan emas, balki inson tomonidan asosiy hayot tarzi talab qilgan savollarni qo'yilishi bilan aniqlanadi. «Har bir inson, o'z oldiga qo'yilgan savolga diqqat qaratadi, u haqda «o'ylaydi», shaxs sifatida unga javob berishga harakat qiladi, faqat aql yordamida u dinga e'tiqod qiladi, bu savolga javob beruvchi har qanday tizim va bu javobni keyingi avlodga o'tkazuvchi hodisa *din* bo'ladi»[6;92].

Tarixiy shakllangan din tushunchasi va uning mazmunini Fromm inkor qiladi, dinni umuman dunyoqarash bilan aynanlashtiradi[8;147]. Shunday qilib, «din» tushunchasi nafaqat an'anaviy diniy e'tiqodni qamrab oladi, balki falsafiy tizimlarni, axloqiy ta'limotlarni hamda ijtimoiy-siyosiy ta'limotlarni ham o'z ichiga oladi.

Erkin tarzda turli ta'limotlarga, tizimlarga tatbiq qilingan «din» tushunchasi u yoki bu darajada inson mavjudligi muammolariga tegishlidir. Dinni Fromm «hukmdor din» va «insonparvar din»ga bo'ladi[8;148]. «Hukmdor din» - bu begonalashgan inson dinidir, uning sig'inish obyekti (sanami, xudosi) begonalashgan inson xislatlaridir, u insondan uzib olinib, alohida, mustaqil mohiyat sifatida ko'riladi. Fromm har qanday ajralgan va yangilangan «hukmdor din»ni qat'iy ravishda tanqid qiladi. Har bir dunyoviy dinning fojiasi shundaki, ular ommaviy tuzilmaga aylanishlari bilan cherkov va boshqa diniy muassasalar tartiboti orqali boshqariladi. Keyinchalik ular, albatta, dastlab e'lon qilingan erkinlik, mustaqillik va baxtilik tamoyillarini buzadilar.

«Hukmdor din» - bu insonning asosiy ehtiyojlarini qondirishning eng maqbul usulidir. «Hukmdor din», Fromm ta'kidiga ko'ra, jamiyatning zaruriy mahsulidir, bunda hokimiyat tepasida manfaatdor shaxslar kamchilikni tashkil qiladi. Unda inson inson tomonidan eziladi, shaxs maqsad emas, vositaga aylanadi. «Mulkka ega bo'lgan kamchilik tomonidan boshqariladigan jamiyatlarda omma qo'rquvda bo'ladi, u bo'ysundiriladi, doimo qo'rquvda yashaydi, o'zini kuchli va mustaqil his qila olmaydi, uning diniy tayanchi, albatta hukmdor bo'ladi, kimga sajda qilishiga qaramasdan, Xudogami yoki xuddi shunday qabul qilingan dahogami»[8;151].

«Hukmdor din»ning bevosita qarama-qarshisi, Fromm fikriga ko'ra, «insonparvar din»dir. Unda hamma diqqat insonga yuksak qadriyat sifatida yondashuviga qaratiladi. Uning asosida insonning cheksiz imkoniyatlariga, tafakkuriga va intilishlarining eziguligiga ishonch yotadi. Oqizlik emas, balki insonning cheksiz qudrati, bo'ysunish emas, balki to'liq darajada o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, gunohkorlik, qayg'u emas, balki quvonish, baxt to'kisligi kabilar «insonparvar din»ning mazmunini tashkil qiladi[8;145]. «Hukmdor din»dan farqli ravishda, «insonparvar din» «shaxs o'z taqdiri uchun javobgar bo'lganda, o'zini erkin his qilganda, erkinlik va mustaqillik uchun kurashuvchilar orasida bo'lganda»[8;155] vujudga keladi.

Dinning insoniylik ruhiyati Frommning «Ruhiyat tahlili va din» (1950) va «Inson qalbi» (1964) asarlarida ham chuqur, atroflicha tahlil qilinadi. Uning fikricha, diniy e'tiqod inson tabiatining mohiyatida ildiz otadi. Shu holat madaniylashuv natijasida hosil bo'lgan begonalashuvni nisbatan yumshatadi.

Ibtidoiy davrdagi diniy e'tiqod tabiatdan ajralmagan holda namoyon bo'ladi. Madaniyat taraqqiyoti esa, tabiatga nisbatan begonalashuvni yanada chuqurlashtiradi va ayni paytda unga qarshi kurashni ham shakllantiradi. Frommning «Muhabbat san'ati» (1956) asarida begonalashuvni engishning yagona vositasi sifatida muhabbat tahlil qilinadi. Muhabbat inson tabiatiga xosdir. Hamma muhabbat ichida eng yuksagi – bu xudoga bo'lgan muhabbatdir. Bu muhabbat orqali inson umuman insonga bo'lgan muhabbatni ham namoyon qiladi. Shu munosabat bilan Fromm o'z-o'ziga mahliyo bo'lishga («narsisslik»ka) katta ahamiyat beradi. Uning fikricha, insonning yaxshilik va yomonlik qiluvchi qobiliyati ongsizlik darajasida mavjud bo'lgan buzg'unchilik yoki yaratuvchilik intilishlari orqali namoyon bo'ladi. Buzg'unchilik kuchlari o'limga intilish, o'z-o'ziga mahliyo bo'lish, olomonlikka intilishda aks etadi. Yaratuvchilik kuchlari esa, ularga zid bo'lgan holatlarda ro'yobga chiqadi. Bunda hayotga intilish, boshqa insonlarga nisbatan muhabbatli bo'lish va shaxsan mustaqil bo'lishga harakat qilish kabilar kiradi. Frommning fikricha, o'ziga mahliyolik holati - bu ruhiy quvvatdir. Bu hol insonning ichki biologik kuchlarini junbishga keltiradi. Zotan, Fromm ijtimoiy-iqtisodiy omillarni biologik quvvat bilan bog'lashga harakat qilsa ham, uningcha ijtimoiy munosabatlar ichki imkoniyatni ro'yobga chiqarish uchun tashqi muhit bo'lib qolaveradi. SHundan kelib chiqqan holda, din ham insonning buzg'unchilik va yaratuvchilik intilishlaridan kelib chiqqan holda namoyon bo'ladi.

Diniy e'tiqodda, Fromm fikricha, o'ziga mahliyolik yakka holda yoki jamoaviy holda qo'llab-quvvatlanadi. Jamoaviy quvvatlash bir guruhning ikkinchi guruh ustidan e'tiqod ustunligini namoyon qilish orqali amalga oshishi mumkin. «Diniy guruhda – bu mening guruhim haqiqiy xudoga e'tiqod

FALSAFA

qiluvchilar ichida yagonadir, deb hisoblovchilar ta'kidi orqali amalga oshadi»[9;85]. Diniy o'ziga mahliyolik insonlar uchun halokatni bildiradi. Bunga – mutaasiblik, aqidaparastlik va zo'rvonlikni misol qilib keltirishimiz mumkin. Zotan, Fromm diniy o'ziga mahliyolikni tanqid qilsa ham, lekin uning maqsadi dinning ijtimoiy mohiyatini ochib berishga qaratilmagan. U ayrim hollarda e'tiqod buzg'unchilikni mustahkamlaydi, boshqa paytlarda esa, uni aksi ham bo'lishi mumkin, ya'ni yaratuvchilikka xizmat qiladi, - deydi. Diniy e'tiqod inson ruhida o'ziga mahliyolikni yengish uchun qilgan harakatda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham din orqali qanday qilib insonning xudbin intilishlarini yo'qotish yo'llarini aniqlash lozim? So'fiylikda buni osonlik bilan engish mumkin. Ya'ni inson «men»i butun olam va Xudo bilan birlashib ketadi. Fromm fikricha, yaxudiylik, xristianlik dinlarida inson va uning xislatlari o'zgacha holda namoyon bo'ladi.

Xristianlikning «O'z yaqiningga muhabbatli bo'!» degan aqidasi bunga yaqqol misol bo'la oladi. O'ziga mahliyolik ustidan to'liq g'alaba «Dushmaningga ham muhabbatli bo'!» degan aqida orqali amalga oshadi. Fromm fikricha: «O'zga e'tiqodini yoki dushmanni sevib qolish, faqat «men» «o'zga»da singib ketgandagina mumkin»[9;89].

Fromm dindagi bir-biriga zid keluvchi omillarni kelishtirishga harakat qilib, o'ziga mahliyolikka xizmat qiluvchi – “hukmdor din” va “insonparvar din” kabi tushunchalarni kiritadi. Ana shu tushunchalarning mohiyati insonga qay darajada ta'sir qilishiga, uning amal qiladigan qadriyatlariga bog'liqdir. SHu o'rinda Fromm dinga keng qamrovli ta'rif beradi: «... din deganda men, guruh tomonidan qabul qilingan fikrlash tizimi va harakatni tushunaman, bu shaxsga yashash yo'nalishi va e'tiqod qilish obyektini ko'rsatadi»[8;146]. Dinni bunday ta'riflash esa uni tor doiradan chiqarib, qadriyat bilan uyg'unlashtirishga olib keladi. Umuman olganda, dinning turli shakllari ruhiy tahlil uslublari orqali asoslanadi va yoqlanadi.

Ruhiyat tahlili nuqtai nazaridan din taskin beruvchi vazifani ham bajaradi. Asabiylkning chuqur ildizi Fromm fikricha, seva olish hissiyotining yo'qligidir. Muhabbat hissiyotini diniy hissiyotni kuchaytirish orqali paydo qilish mumkin. Demak, Frommning din haqidagi ta'limotining asosiy xususiyati - uning mohiyati va ildizlarini insoniylashtirishdan iborat bo'ladi.

Shuningdek, muhabbat hissiyotining yo'qligi - insonni tabiatdan, jamiyatdan, odamlardan, xatto o'z-o'zidan begonalashuviga olib keladi. Shunday holatda ruhiyat tahlili dinning shartlari va omillari orqali inson qalbida muhabbat kurtaklarini ochishga yordam berishi zarur, deydi Fromm. Masalan, inson o'zining shaxsiy xususiyatlari yordamida butun qalbini egallab olgan notinchlik, vahimaga tushish, qo'rquv kabi illatlar uchun o'zini aybdor, gunohkor deb his qila boshlaydi, uni doimo bartaraf etish yo'llarini izlaydi. Xuddi shu gunohkorlik va aybdorlik hissini inson va uning manfaatlariga zid keluvchi dinning ba'zi bir talablariga yo'yish mumkin. Bunda sig'inish obyekti emas, balki dinga bo'lgan munosabatning o'zi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. «Savol, - deb yozadi Fromm, - bu dinmi yoki din emasmi deb emas, balki qanday turdagi din, deb qo'yilishi shart»[8;146].

XX asrda inson hammadan ham ko'proq dinga muhtojdir, deydi Fromm. Buyuk ilmiy kashfiyotlar, texnik yutuqlar insoniyatga tabiat ustidan hukmronlik qilish imkoniyatini berdi, mehnat va hayot tarzini yengillashtirdi. Zamonaviy inson o'z qo'li bilan yaratgan mahsulotlardan g'ururlanadi. «Lekin inson o'ziga qarab nima deya olishi mumkin? Insoniyatning qadimgi orzularidan INSON tobora takomillashdimi?»[8;148] - deb savol beradi Fromm. Murakkab va ajoyib narsalar hamda buyumlarni yaratgan inson o'z-o'zini barkamol qila olmadi. Uning ichki hayoti nizolar, ziddiyatlar bilan limmo-lim, uning ehtiyojlari xohishlari bilan to'g'ri kelmaydi, uning baxtga, haqiqatga, adolatga, intilishi yolg'on saroblarga aylangan. Shuning uchun ham himoyalaniish va xotirjamlikka erishish uchun u dinga murojaat qilishga majbur edi.

Lekin zamonaviy, ommaviy dinlar to'laqonli ravishda insonning yuksak maqsadlarga erishishiga, hayotbaxsh timsollarni amalga oshirishga, dunyoqarashini mukamallashtirishga yordam bermaydi. Insoniyatni faqat hukmdorlikdan va aqidaviylikdan holi bo'lgan yangi din qutqarib qolishi mumkin. U insonni ijtimoiy ongning eskilik qoldiqlaridan, sustligidan (lanjligidan) chiqaradi, o'z muammolariga o'ralashib qolgan insoniyatni yangi ijtimoiy, ruhiy rivojlanish ufqlariga ko'tarishi mumkin. Bu vazifani Fromm fikriga ko'ra, yangi tuzilgan «insonparvar din» amalga oshirishi mumkin.

Shunday qilib, Frommning «insonparvar din» haqidagi ta'limoti -har qanday aqidaviylikdan, cheklashlardan holi bo'lgan, sodda afsonaviylik va ko'zbo'yamachiliklardan tozalangan, dunyoning ilmiy manzarasiga zid kelmaydigan, shu bilan birga, mo'jizani kutmaydigan, «sinoatlilik» hissidan,

«junbishkorlikdan» va «huzurlanishdan» holi bo'lgan, lekin ehtirosli kayfiyatni o'zida saqlab qolgan (busiz din faoliyat ko'rsata olmaydi) ta'limotdan iboratdir. Fromm fikricha, «Insonparvar din», - bu tafakkur-mulohaza yuritadigan tuzilma emas, yopiq muassasaning mahsuli emas. U ijtimoiy va diniy fikrlar rivoji tarixida o'z negiziga ega bo'lib, o'zida adolat, erkinlik, birodarlik, tenglik va baxt timsollarini mujassamlashtirgan. Uning g'oyaviy otalari Iso Masih, Budda, Lao-szi va Konfutsiydir. Shuningdek, Suqrot va Spinozalar ham, ma'rifatparvarlik davrining namoyondalari ham uning ruhiy otalari hisoblanadi[8;150].

Hech qanday rasm-rusum, marosim, nazariy mazmun «insonparvar din»ning ichki mohiyatini tashkil qilmaydi. Uning markazi, ibtidosi va abadiy mazmuni, Frommning fikriga ko'ra, «diniy tajribadir», ya'ni inson tomonidan bevosita his qilinadigan mavjudlik vaziyatidir. Bugungi kunimiz uchun xos bo'lgan jarayon - bu bevosita subyekt hissiyotiga yo'naltirilgan dinlardir. Mohiyatan qaraganda, Erix Frommning «insonparvar dini» zamonaviy e'tiqod qiluvchilarning dunyoqarashiga o'xshaydi. Uning diniy tuzilmasida aqidalar va marosimlar asosiy o'ringa ega emas, balki inson subyektiv hissiyotlarini, axloqiy baxt tuyg'usini tuyishi ahamiyatlidir.

Bunday yondashuvda «diniy tajriba» o'zining diniylik mazmunini yo'qotib qo'ymaydimi? - degan savolning tug'ilishi tabiiydir. Yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarni hech qanday transsendent manbai bo'lmagani uchun axloqiylikka yo'yib, diniy deb atalmasa, ularning ular e'tiqod qiluvchilarning imtiyoziga bo'la olmaydi. Zotan, Fromm bunga talabgor ham bo'lmaydi. «Xudoga shubhasiz e'tiqod qiluvchilarning ko'pchiligi, - deb yozadi Fromm, - o'zining insoniy munosabatlarida yoki e'tiqodsiz insonlar bilan muloqotda bo'lganda, har qanday eskilik va bid'atlarga ishonishadi. Ba'zi bir kurashuvchan «dahriylar» bo'lsa, o'z borlig'ini insoniyat hayotini yaxshilash uchun bag'ishlaydi, hamkorlikni, birodarlik va muhabbatni ulug'laydi, chuqur diniy munosabatga ishonishlarini amaliy namoyon qiladi»[8;185].

Shunday ekan, Fromm ziddiyatli xulosaga keladi: muhabbat va adolat, erkinlik va baxt tamoyillarini namoyon qiluvchi diniy tajriba ko'proq qat'iy ishongan e'tiqod qiluvchilarga nisbatan, ya'ni dahriylarga xosdir. Bu natija dinni insonparvar axloqqa aylantirilganligidan so'ng mumkin bo'ldi yoki axloqni «insonparvar din» darajasiga ko'tardi. O'z nuqtai nazarini asoslab Fromm yozadi: «Men ishonamanki, axloqiylik va diniylik o'rtasidagi farq qismandir, aslo to'liq holda emas»[8;90]. U buni aniqlashga harakat qilganda, ya'ni diniy tajribani axloqqa butunlay qo'shib ketishining oldini olish borasida umumiy mulohazalar bilan cheklanadi, holos. «Diniy tajribani faqat uni boshidan o'tkazganlarga tushunadilar, ularning o'zi hech qanday ta'rifga, aniqlikka muhtoj bo'lmaydi»[8;90], - deydi E.Fromm.

XULOSA

Yuqorida bildirilgan fikr-mulohazalar asosida quyidagi xulosalarni qilish mumkin: dinning hukmdor va insoniylik shakllari tizimli jarayonlarda «Men» chegarasi bilan cheklanadi. Fromm tomonidan tashqi ijtimoiy omillarning kiritilishi (bularga siyosiy-iqtisodiy rivoj, fan-texnika taraqqiyoti, ma'naviy xususiyatlar va hokozalar kiradi) diniy ong mohiyatini qayta ko'rib chiqish uchun emas, balki aniq shaxs tomonidan dinni anglash imkoniyatlarini amalga oshirish uchun zarur bo'ladi. Mohiyatan esa, dinning kelib chiqishi ijtimoiy omillarni emas, balki ruhiy omillarni tabiiy mutanosibligiga bog'liqdir. Inson xarakterining biologik xususiyatlari ijtimoiy sharoitdan kelib chiqmaydi. Aksincha, dindan keng foydalanuvchi ruhiy davolash ijtimoiy muhitni biologik jihatdan sog'lomlashtiradi; darhaqiqat, Fromm ruhiyat tahlili bilan din o'rtasidagi o'zaro munosabatni aniqlaydi: hech qachon ular bir-birini istisno qilmaydi, bundan tashqari, ruhiyat tahlili amaliyoti diniy hissiyotning mavjudligini doimo tan olishi zarur va ruhiy davolanishda dinning ijobiy mazmunidan foydalanishi lozim. Fromm SHarq va G'arb dinlariga insonparvarlik g'oyalari xosligini, ular inson qalbi haqida qayg'urishini va unda muhabbat tuyg'usi borligini isbotlashga harakat qildi. SHundan kelib chiqqan holda, xulosa qilish mumkinki, ruhiyat tahlili doimo dinga muhtoj bo'ladi, shu o'rinda diniy e'tiqod ham ruhiyat tahlilining uslublaridan foydalanishi kerak.

Insonparvar din, Frommning fikricha, quyidagi sifatlarni taqozo qiladi: **birinchidan**, inson hayotni muammo sifatida qabul qilishi lozim va shunga yarasha echim topishi kerak; **ikkinchidan**, doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirishga intilishi, ichki imkoniyatlarini to'laqonli darajada amalga oshira borishi lozim; **uchinchidan**, hayotni qadriyatlar takomili bosqichlariga bo'ysundirib borishi kerak. Unda tamal toshi inson va insoniylik tamoyillari bo'ladi; **to'rtinchidan**, insonning dunyoni bilishi, butun borliq bilan birgaligi, unga singib ketganligi muhimdir; **beshtinchidan**, o'z-o'zini transsendentallash, ya'ni o'z «Men»i chegaralarini engib o'tish, xudbinlikdan qutulishi, ochko'zlik, o'ziga mahliyolikdan, buzg'unchi va o'limga intilish holatlaridan butunlay holi bo'lishi, uning o'rniga

FALSAFA

oʻzida muhabbatni parvarishlashi, ijodiyotni uygʻotishi, haqiqatga intilishi, erkinlikdan foydalana bilishi va oʻzining eʼtiqodi uchun iztirob chekishi va kurashishi kerak.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Ruzmatova G. Ruhiyat tahlili falsafasi. –Toshkent: Nishon-noshir, 2014. – B.264; Alimasov V. Inson tanazzuli (Erix Frommni oʻqib). –B. 110-122. // Falsafa yoxud fikrlash chanqogʻi. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2007. –278 b.
2. Rahmon Qoʻchqor. Qalb ilmi egasi // Jahon adabiyoti jurnali - 2013. № 3. –B.177-179.
3. Fromm E. Begstvo ot svobodi. – Moskva: Progress, 1990. – S.280.
4. Uells G. Krax psixoanaliza: Ot Freyda k Frommu; Dobrenkov V.I. Neofreydizm v poiskax «istini». –M., 1974.
5. Fromm E. Beyond the Chains of Illusions. –N. –Y., 1962. –P. 9.
6. Fromm E. Psixoanaliz i Dzen Buddizm. –M.: Politizdat, 1989. –S. 80.
7. Fromm E. Dogma o Xriste. –M.: AST: Tranzitkniga, 2005. –S. 15.
8. Fromm E. Psixoanaliz i religiya // Sumerki bogov. –M.: Politicheskaya literatura. . –M.: Polit. lit., 1989. –S. 147.
9. Fromm E. Dusha cheloveka. –M.: Respublika, 1992. –S. 85.